

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**ATAKANOV AVAZBEK KOMILJANOVICH**

**IPLI IKKILAMCHI TO‘QIMACHILIK MATERIAL RESURLARIDAN  
TOLALI MASSA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2023 yil**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Ataxanov Avazbek Komiljanovich**

Ipli ikkilamchi to'qimachilik material resurslaridan tolali massa tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish..... 5

**Атаханов Авазбек Комилжанович**

Совершенствование технологии приготовления волокнистой массы из нитесодержащих текстильных вторичных ресурсов ..... 23

**Atahanov Avazbek Komiljanovich**

Improving the technology for the production of fibrous mass from yarn of secondary textile raw materials..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works 48

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.T.66.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**ATAXANOV AVAZBEK KOMILJANOVICH**

**IPLI IKKILAMCHI TO‘QIMACHILIK MATERIAL RESURLARIDAN  
TOLALI MASSA TAYYORLASH TEXNOLOGIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Namangan – 2023 yil**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.1.PHD/T1020 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasiga ([www.nammti.uz](http://www.nammti.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portaliga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Azizov Inomjon Rashidovich**

texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Matismailov Saypila Lolashbayevich**

texnika fanlari doktori, professor

**Qayumov Juramirza Abdiramatovich**

texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon mashinasozlik instituti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.T.66.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "04" noyabr soat 09<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: [niei\\_info@edu.uz](mailto:niei_info@edu.uz), Namangan muhandislik-texnologiya instituti 3-bino, 2-qavat, 313-xona).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 560-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "23" oktyabr kuni tarqatildi.  
(2023 yil "23" oktyabrdagi № 130-raqamli reestr bayonnomasi).



*R.M. Muradov*

**R.M. Muradov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, texnika  
fanlari doktori, professor

*X.T. Bobojanov*

**X.T. Bobojanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

*Q.M. Xoliqov*

**Q.M. Xoliqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda to‘qimachilik sanoatining xomashyo bazasini rivojlantirish, ishlab chiqariladigan tolalarning turlarini ko‘paytirish, yangi xususiyatli tolalar va iplar ishlab chiqarish bilan bir qatorda ikkilamchi xomashyo resurslarini qayta ishlash va ulardan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Paxta kiyim-kechak va turli to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun dunyodagi eng mashhur tola hisoblanadi. Paxta tolasidan tikilgan kiyimlar inson organizmi uchun gigienik tomondan foydali hisoblangani uchun paxta biznesi jahon iqtisodiyoti uchun muhimdir. Bir yilda dunyo miqyosida 27 million tonna paxta ishlab chiqariladi. 2028 yilga kelib paxta yetishtirish 29 million tonnaga yetishi ko‘zda tutilgan. Xitoy eng yirik paxta ishlab chiqaruvchisi, ammo baribir ular eng yirik paxta importchisi hisoblanadi<sup>1</sup>. Bu boradagi muammolarni hal etish maqsadida jahon to‘qimachilik sanoatiga bir qator katta o‘zgarishlar kiritish asosida xomashyo zahirasi ega hududlarda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun barcha resurslarni, jumladan ikkilamchi xomashyo resurslarini sanoatga qaytarish orqali ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda ikkilamchi to‘qimachilik resurslaridan foydalanish borasidagi yechimlarni aniqlash, chiqindilarni atrof-muhitga zarari va ulardan foydalanishning iqtisodiy foydasini ko‘rsatish, chiqindilarni atrof-muhitga ekologik yukni kamaytirish, ishlab chiqarish chiqindilarini yo‘q qilish yoki keskin kamaytirish, moslashtirilgan texnologiyalarni, yopiq texnologik tsikllarni va kam chiqindili jarayonlarni keng joriy etish, tolali ikkilamchi to‘qimachilik resurslarini qayta ishlash jarayonlarini takomillashtirishni va chiqindilardan tolali massa olishga ixtisoslashgan yangi uskunalarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan ipli ikkilamchi resurslarni va eskirgan to‘qimachilik buyumlari hamda sanoat chiqindilarini qayta ishlash asosida to‘qimachilik sanoatida mahsulot ishlab chiqarishga yaroqli tiklangan tolalar olish texnologiyasini yaratish, jihozlarning texnik va texnologik imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, ikkilamchi to‘qimachilik resurslaridan olinadigan tolali massaning texnologik va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash, tolalarning amaldagi xossa va xususiyatlarini saqlab qolish hamda salbiy ekologik oqibatlarni kamaytirish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda mavjud xomashyo bazasidan samarali foydalangan holda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini yanada oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi<sup>2</sup> ning 22-maqсадida ko‘zda tutilgan, ya‘ni “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish,

<sup>1</sup> <https://uzts.uz/en/global-cotton-production-import-and-export-analysis-in-2021-22-crop-year/>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi no‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni

jumladan, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish” bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, tola sifatini oshirish, yigirilgan ip assortimentlarini kengaytirish, korxonalariga yangi texnika va texnologiyalarni joriy qilish, yigirishning yangi usullarini ishlab chiqish masalalari muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarini chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” PF–53-son farmoni, 2020 yil 5 maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5989-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** To‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarishda va undan foydalanishda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslar hisoblangan chiqindilarni qayta ishlash texnologiyasini yaratish va takomillashtirish, yangi uskunalarni ixtiro qilish, ikkilamchi resurslardan olingan tolalardan mahsulot ishlab chiqarish muammolarini tadqiq qilish borasida bir qator xorijiy olimlar soha rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar, jumladan Kayren Joy Nunn, Susan Hughes Brown, Mark W. Spencer, Mehmet Emin, Katarina Lindström, Zunjarrao Kamble, Bijoya Kumar, Julia Aronsson, Anders Persson, G.R.Robert, S.C.Mauldin, Shanthi Radhakrishnan, Yun Liu, Haihong Huang, Zinabie Degu, W.Luxuan, H.Shuting, C.Stone, A.G.Sevostyanov, P.A.Sevostyanov, O.Kadnikova, O.Emrah, G.Gallucci, D.B.Riklin, V.D.Frolov, A.F.Plexanov, Windsor va boshqalar.

Ishlab chiqarishda va undan foydalanishda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni qayta ishlash texnologiyasini yaratish va takomillashtirish, yangi uskunalarni ixtiro qilish, ikkilamchi resurslardan olingan tolalardan mahsulot ishlab chiqarish va tadqiq qilish bo‘yicha O‘zbekistonning taniqli olimlari bir qator tadqiqotlar olib borgan. Bulardan, B.M.Mardonov, K.S.Sultanov, Q.J.Jumaniyazov, Q.G‘.G‘ofurov, E.T.Maksudov, S.L.Matismailov, I.R.Azizov, N.O.Odilxonova, B.Aliev, U.N.Yusupalieva, M.Axmedovlar olib borgan tadqiqotlari natijasida tola sifatini yaxshilash, yangi assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarish, ikkilamchi to‘qimachilik resurslarini qayta ishlashga ixtisoslashgan texnika va texnologiyalarni takomillashtirish masalalarida salmoqli natijalarga erishganlar.

Shu bilan birga, amalda o‘rganilgan texnologik tizimlarni ip-gazlama sanoatidagi ipli ikkilamchi resurslarni qayta ishlash korxonalarida foydalanish imkoniyatlari cheklangan, olinadigan tolali massaning sifat tarkibi va xususiyatlarini tahlili, ipli ikkilamchi resurslarni qayta ishlash texnologiyasi va jihozlari konstruktiv parametrlarini tiklangan tolali massa xossalariga va tuzilishiga ta’siri bo‘yicha muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining «Ipli ikkilamchi to'qimachilik material resurslaridan tolali massa tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish» mavzusiga asosan olib borilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ip gazlama sanoatida hosil bo'ladigan ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarini qayta ishlab tolali massa olish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarini qayta ishlash va ulardan olingan tolali massadan foydalanish yo'nalishlarini, tasnifini tahlil qilish va ularni qayta ishlash imkoniyatlarini aniqlash;

ipli ikkilamchi resurslarni titishga tayyorlash va titib, tolali massa olishda ishlatilayotgan jihozlarning amaldagi turlari, texnik va texnologik imkoniyatlarini tahlil qilish;

ip-gazlama sanoatida hosil bo'ladigan chigal iplar, ip uzuqlari va qoldiqlarini titish mashinalarida qayta ishlash texnologiyasini tadqiq etish asosida amaldagi mashina parametrlarining mos ratsional qiymatlarini aniqlash;

titish mashinasining ishlash texnologik parametrlarini konstruktiv ko'rsatkichlari, xomashyo va tiklangan tola xossalariga muvofiq aniqlash usulini ishlab chiqish;

takomillashtirilgan titish uskunasini yaratish va uning tuzilishi, ish sharoitlari hamda parametrlarini asoslash, texnologik imkoniyatlarini aniqlash;

ip-gazlama sanoatining ipli ikkilamchi resurslaridan olingan tolali massaning xossalarini amaliy tadqiq etish, ulardan ip yigirishda va noto'qima matolar tayyorlashda foydalanish imkoniyatlarini baholash.

**Tadqiqotning ob'ekti** sifatida paxta tolalaridan yigirilgan chigal iplar, chiqindilardan tiklangan tolalar, yigirish yarimmahsulotlari, ip, tarash va yigirish mashinalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarini qayta ishlash jihozlar kompleksi, titish mashinalari, noto'qima matolar tayyorlash va pnevmomexanik usulda ip yigirish mashinalarida mahsulotlarni shakllanish jarayoni hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika, eksperimental tadqiqotlar, matematik statistika, zamonaviy o'lchash usul va vositalari, eksperimentlarni rejalashtirish va optimallashtirish kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarini tarkibiy tuzilmasiga va ishlab chiqarish texnologiyasiga asoslangan tasnifi ishlab chiqilgan, ipga berilgan buramlar soni, uning diametriga va texnologik ko'rsatkichlariga muvofiq tolaning ipda egallagan uzunliklarini aniqlash formulasi ishlab chiqilgan;

ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarini titish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida arra tishli qoplama o'ralgan uch juftli ta'minlash qurilmasi o'rnatilgan titish uskunasini konstruksiyasi yaratilgan;

tiklangan tolalarni qayta ishlash jarayoni natijasida olingan regression tenglamalari asosida tarash mashinasining qabul baraban qismining parametrlarini maqbul qiymatlari aniqlangan;

ip gazlama sanoatida hosil bo'ladigan chigal iplar, ip uzuqlari va qoldiqlarini titish mashinalarida qayta ishlash texnologiyasi takomillashtirilgan hamda mashinaning ratsional ishchi parametrlari regression matematik model orqali aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarini qayta ishlashda ularning tuzilish ko'rsatkichlari, xossa va xususiyatlarini baholash asosida texnologiyani muvofiqlashtirish uslubi ishlab chiqilgan;

ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarni tasnifini tahlil qilish va ularni qayta ishlash imkoniyatlari aniqlangan;

ipli ikkilamchi resurslarni titishga tayyorlash va titib, tolali massa olishda ishlatilayotgan amaldagi jihozlarning texnik va texnologik imkoniyatlari belgilab berilgan;

ip-gazlama sanoatida hosil bo'ladigan chigal iplar, ip uzuqlari va qoldiqlarini titish mashinalarida qayta ishlash texnologiyasini tadqiq etish asosida mashina parametrlarining mos ratsional qiymatlari aniqlangan;

titish mashinasining ishlash texnologik parametrlarini konstruktiv ko'rsatkichlari, xomashyo va tiklangan tola xossalariga muvofiq aniqlash usulini ishlab chiqilgan;

takomillashtirilgan titish uskunasi yaratildi va uning tuzilishi, ish sharoitlari va parametrlarini asoslash tartibi, texnologik imkoniyatlari aniqlangan;

ip-gazlama sanoatining ipli ikkilamchi xomashyosidan olingan tolali massaning xossalariga muvofiq ularni aralashmasidan ip yigirishda va noto'qima matolar tayyorlashda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining mosligi, ipli ikkilamchi resurslarning sifat tarkibi va xossalari, tiklangan tolali massa tarkibidagi tolalarning texnologik xossalari, tiklangan tolali massaning sifat tarkibini chuqur o'rganilganligi, qayta ishlash jihozlari va texnologiyasi parametrlarini asoslash uchun tavsiya etilgan yechimlar, titish, tarash jarayoni parametrlarini xomashyo turiga bog'liqlik regression tenglamalar ko'rinishidagi matematik modellari qurilganligi, o'rganilayotgan sohada ma'lum bo'lgan baholash mezonlari bo'yicha hisoblash tajribalari tahlili hamda standart talablari bilan taqqoslash bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarning ilmiy ahamiyati ip gazlama sanoatidagi ipli ikkilamchi resurslarni tashkil etuvchi iplarni qayta ishlashga tayyorlash uchun qirqish uzunligini ipning tuzilishi va xossalariga bog'liqligini asoslanganligi, ipli ikkilamchi resurslarni qayta ishlab, tolali massa olish uchun tavsiya etilgan jihozning tuzilish va texnologik parametrlarni asoslanganligi, yangi ta'minlash qurilmasi va usuli tavsiya etilganligi, tiklangan tolalardan noto'qima mato tayyorlash jarayonlarini matematik modellari yaratilganligi, tiklangan tolalarni yigiriluvchanligini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ip gazlama sanoatida hosil bo'ladigan ipli ikkilamchi resurslarni sifati va tarkibini miqdoriy baholash usuli, ularni titishga tayyorlashni texnologik imkoniyatlarini aniqlanganligi, ipli chiqindilarni titib, tolali massa olish jarayonida qo'llaniladigan jihozlarni tezliklari, ishlash jadalligini maqbul kattaliklarini aniqlanganligi, tiklangan tolalardan noto'qima mato tayyorlashda va pnevmomexanik usulda ip yigirishda foydalanish mumkinligi shu turdagi resurslardan samarali foydalanishga asos bo'la olishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ipli ikkilamchi to'qimachilik material resurslaridan tolali massa tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish asosida olingan tolali massadan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish borasida olingan natijalar asosida:

ipli ikkilamchi to'qimachilik resurslarini titish jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida arra tishli qoplama o'ralgan uch juftli ta'minlash qurilmasi "Home textile NT" MChJ korxonasi joriy qilingan («O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasining 2023 yil 26-iyuldagi 03/25-1630-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tolalarning xossasi yaxshilangan, nuqsonlar kamaygan, kalta tolalar miqdori kamayishi hisobiga bir yilda bitta korxonada 224 million so'mdan ortiq foyda olinishi mumkinligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 11 ta halqaro va 5 ta respublika ilmiy-texnik anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqolalar, jumladan 7 ta respublika va 2 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan 2 ta EHM dasturi uchun mualliflik guvohnomasi olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ipli ikkilamchi to‘qimachilik resurlaridan tolali massa tayyorlash texnika va texnologiyasini zamonaviy holati”** deb nomlangan **birinchi bobida** to‘qimachilik ikkilamchi resurslarni qayta ishlash va foydalanishning umumiy jihatlari, to‘qimachilik chiqindilarini turlari, ularning miqdori va keyingi taqdiri to‘g‘risidagi qarashlar, yig‘ish va qayta ishlash usullari, titib olingan tolalarning asosiy fizik-mexanik xususiyatlari, chiqindilarni utilizatsiya qilish tajribalari, to‘qimachilikda chiqindilarni boshqarish, to‘qimachilik sanoati mahsulotlari chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini tadqiq etish bo'yicha tajribalar tahlili, chiqindilarni kamaytirishni yo'llari, tiklangan tolalardan foydalanish, ulardan ip yigirishda va matolar olishda foydalanish, qattiq to‘qimachilik chiqindilarini tola holiga keltirish uchun titish va regeneratsiya qilish jihozlarini takomillashtirish, jihozning konstruktiv tuzilishi va uni ishlashini baholash usullarini, titilgan tolalarni saralash masalasi, ikkilamchi to‘qimachilik resurslaridan foydalanish borasidagi yechimlar, tajribalar va muammolar tahlili, atrof-muhitga ekologik yukni kamaytirishga, chiqindilardan foydalanishda, erituvchilar tizimlari yordamida qayta ishlash maqsadidagi tekshirish ishlari, korxonalarda xarajatlarni kamaytirish uchun ip chiqindilarini qayta ishlash tajribalari, qayta ishlangan tolalardan ishlab chiqarilgan iplar va matolarning xossalari, masalaning ekologik, iqtisodiy va texnologik jihatlarni amaldagi tajribalar asosida tahlil qilish, titish jihozlarini ta'minlash qurilmalarini konstruktiv tuzilishi va ularni takomillashtirilishini tadqiq etishda olingan natijalar hamda xulosalarni tahlillari natijasiga ko'ra tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning **“Ipli ikkilamchi to‘qimachilik material resurslarini qayta ishlash texnologiyasi asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida ipli ikkilamchi to‘qimachilik material resurslarini tasnifini ishlab chiqish, qayta ishlashga tayyorlashni texnologik ko'rsatkichlari, iplarni tuzilish ko'rsatkichlari va ularda tolalarni egallagan uzunligi, chigal iplarni titishga tayyorlash jarayonining texnologik omillarini tadqiq etish va titish jarayonini amaliy tadqiq etish bo'yicha nazariy tadqiqotlar va dastlabki tajribalar natijalari keltirilgan.

To‘qimachilik ikkilamchi xomashyolarni tasniflashni ko'plab tizimlari bir-biridan farqlanadi. Bunday tizimni ishlab chiqargan davlat va mutaxassislarni kelishuvi yoki qaror qabul qilishiga asoslangan. Chiqindilarni tasniflashda va standartlashtirish tizimlaridan birida chiqindilarni tasniflanishi chiqindi to‘g‘risidagi ma'lumotlarni tartibga solish deb yuritilib, ularni holati, tarkibi va xossalari hamda moddiy tarkibini tavsiflovchi terminlar bilan ifodalanishiga asoslangan.

Ushbu tadqiqotlarda qabul qilingan “ipli ikkilamchi to‘qimachilik resurslari” atamasi (IITR) umumiy holda tasniflashda sanoatda va iste’molda hosil bo‘lgan chiqindilarni nazarda tutadi. Bunday chiqindilarning umumiyliigi, ularni tashkil etuvchilar asosan iplardan iborat. Shuning uchun ipli ikkilamchi material resurslarni tarkibiy tuzilmasiga muvofiq tasnifi ishlab chiqildi. Unga muvofiq me’zonlar bo‘yicha chiqindilarni sifat tarkibini belgilovchi ko‘rsatkichlari, qayta ishlash texnologiyasini tanlash va tayyorlanadigan tolali massaning xossalarini belgilash uchun muhim hisoblangan tahlillar keltirilgan.

Tarkibi iplardan iborat ikkilamchi material resurslarini qayta ishlashning asosiy maqsadi tolali massa olishdan iborat. Tolali massa iborasi iplarni titib, alohida tolalarga ajratish natijasida hosil bo‘ladigan tolali mahsulotni atamasi hisoblanadi va to‘qimachilikda qayta ishlashga yaroqli tolali xomashyoni bildiradi. Shuning uchun ushbu ilmiy ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, paxta tolalaridan tayyorlangan IITR ning zichligi, chigallilik darajasi, elastikligi va nuqsonlarini baholash uslubini ishlab chiqish kerak bo‘ladi. Shu maqsadda gazlamalar, trikotaj va noto‘qima matolarning tuzilish ko‘rsatkichlari va geometrik xossalarini ko‘rsatuvchi omillarni belgilanishi, ularni aniqlash va baholash me’zonlari, qo‘llaniladigan vositalar tahlil qilindi.

IITR tarkibi asosan iplardan iborat bo‘lganligi sababli qirqish jarayonida tolalarni uzunligi keskin kamayadi. Ushbu holatni sababini izohlash uchun iplarning tuzilish modelidan foydalandik.

Ip turli uzunlikdagi va miqdori jihatidan farqlanuvchi tolalar yig‘indisidan iborat bo‘lganligi sababli yigirilgan ipda tolalarni joylashish tartib va o‘lchamlarni aniqlash muhim masala sifatida belgilandi.

Iplarni titishga tayyorlashda qirqish uzunligini tanlash uchun ipni turli modellarini tahlilini qo‘llash, qaysi tipdagi paxta tolasidan tayyorlanganligi, tolalarning uzunligi bo‘yicha taqsimlanishi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish lozim. Bunday masalaning mohiyati shundaki, agarda tolaning haqiqiy uzunligi  $\ell_0$  deb qabul qilinsa, uning ipdagi uzunligi (mm da) quyidagicha aniqlanishi mumkin

$$\ell = \ell_0 \cdot \eta \cdot K_u, \quad (1)$$

bunda  $\eta$  -tolaning to‘g‘rilanganlik (tekislanganlik) koeffitsienti;

$K_u$  -ipni pishitishda qisqarish koeffitsienti.

Amalda iplarni tuzilishi bir qadar murakkab va diskretlik namoyon qiladi, tolalar ipni shakllanishida ipning o‘qi atrofida buralib, vintsimon chiziqlar shaklida joylashadi va bu buralish qadamlari soni tola uzunligiga bog‘liq. Tolaning ipni o‘qiga nisbatan og‘ish burchagi ipning diametriga bog‘liq bo‘lib, buram qadami bir xil bo‘lganda diametri katta bo‘lgan ipning shunday qismidagi tola bo‘lagi uzunroq bo‘ladi.

Ipga berilgan buramlar soni  $K$  ni 1000 millimetr uzunlikdagi ip uchun belgilanishi qabul qilingani sababli,  $H = 1000/K$  bo‘ladi. Ipga berilgan bitta buram qadamidagi tola uzunligi umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalanishi mumkin

$$\Delta \ell = \sqrt{(\pi \cdot d_{ip})^2 + \left(\frac{1000}{K}\right)^2} \quad (2)$$

bunda  $d_{ip}$  -ipning diametri, mm;  $K$  -ipning bir metridagi buramlar soni, bur/m.

Taklif etilgan ushbu formula asosida hisoblashlar ipning chiziqli zichligi 15,4 tekstdan 100 teksgacha ortishi bilan  $\Delta\ell$  ni 18-54% gacha ortishi, ipdagi buram sonini 500-1000 bur/m oralig'ida ortishida ushbu qiymat 1,6-2,1 marta kamayishini ko'rsatdi.

Chigal iplarni titishdan avval qirqish asosiy bosqich va qirqish uzunligi muhim omil hisoblanadi. Amalda qaysi hollarda qanday uzunlikda qirqish maqsadga muvofiqligi asoslanmagan. Shunga asosan iplarni tuzilishi va  $\Delta\ell$  ni aniqlash bo'yicha hisoblanganda shtapel uzunligiga muvofiq tolani ipda egallagan uzunligi quyidagicha hisoblanishi mumkin

$$L_i = \frac{\ell_{sh}}{\Delta\ell} \cdot \frac{1000}{K} \cdot \eta \quad (3)$$

bunda  $L_i$  -tolani ipda joylashish uzunligi, mm;  $\ell_{sh}$  - tolaning shtapel uzunligi, mm.

O'rta tolali paxta tolalaridan yigiriladigan iplar uchun bajarilgan hisoblash ishlari buramni ortishi bilan uning ipda egallagan uzunligi ikki martagacha qisqarishi mumkinligini ko'rsatdi. Keng assortimentdagi iplar uchun ushbu qisqarish 65% gacha bo'ladi.

Agarda tolalarni joylashishi  $L_i$  uzunlikda takrorlanuvchan deb hisoblasak, ular uchlarining ketma-ket kelishidan ip hosil bo'ladi. Qirqilgan ip bo'lakchasini tashkil etuvchi tolalarni yengil ajralishi uchun, uzunligi bo'ylab unga tutashgan ikkita qo'shni tolalar uchlarini qoplash miqdorini hisobga olgan holda maksimal qirqish uzunligini quyidagi shartga muvofiq tanlash tavsiya etildi


$$L_6 = 2L_i - x \text{ yoki } L_6 = 3L_i - 2x, \quad (4)$$

bunda  $x$  -tolalarni uchlarini ilashish uzunligi.

O'rta chiziqli zichlikdagi chigal iplarni titish jarayonini amaliy tadqiq etish uchun  $L_i$  ning hisobiy qiymati  $22,39 \div 24,8$  mm bo'lishi aniqlandi. (4) shartga ko'ra tajribada  $L_6 = 48$  mm etib belgilandi. Qirqilgan chigal iplarni titish jarayoni olti barabanli ST-T36 rusumli tituvchi mashinada amalga oshirildi.

Tolali massadagi tolalarning texnologik xossalari Uster HVI-1000 uskunasi aniqlandi. Ularning sifat tarkibi esa Uster Afis Pro-2 da o'rganildi. Tiklangan tolalarning texnologik xossalarini qiyosiy baholash uchun 4-tip I nav paxta tolasiga xossalari bilan taqqoslanganda uzunligi bo'yicha bir xillik indeksi-UI paxta tolasiga nisbatan farqlanishi, kalta tolalarning ko'pligi ko'rinadi.

Tolalarning yuqori o'rtacha uzunligi to'liq titilgandan so'ng 26,03 mm bo'lib, o'rtacha chiziqli zichlikdagi ip olish uchun mos keladi (1-rasm, a). Birinchi nav bilan taqqoslanganda ushbu uzunlik o'rta tolali paxtaga xos bo'lib, 6-tip darajasiga teng.




**1-rasm. Titilgan tolalarning texnologik xossalari (HVI -1000 jihozida aniqlangan)**

Kalta tolalar miqdorini ko'rsatuvchi ma'lumotlar juda ahamiyatli bo'lib, u yuqori deyish mumkin (1-rasm, *b*). Qariyb 3 marta ortiqcha bo'lgan ushbu ko'rsatkich asosan qirqqish jarayonining hissasiga to'g'ri keladi.

Titish jarayonida ko'p zarbalarga duch kelishi bilan bir qatorda ipni yigirish bosqichlarida ko'rsatilgan mexanik ta'sirlar oqibatida tiklangan tolalarning nisbiy uzilish kuchi 9,9% ga kamaygan. Shunga qaramay nisbiy uzilish kuchi o'rta tolali paxta uchun belgilangan me'yorlarga (25,4÷28,4 g/teks) mos keladi.

Tiklangan tolali massaning sifat tarkibi tahlillarini ko'rsatishicha, birinchi barabandan keyin nuqsonlarni keskin ortishi, keyinchalik keskin kamayishi kuzatiladi (2-rasm, *a*). Eng e'tiborlisi, tiklangan tolali massadagi texnologik jihatdan qaraganda kalta tolalar miqdori muhim ko'rsatkichdir. Soni jihatidan ham, massasi bo'yicha ham kalta tolalarni ko'pligi sifatni pasayishiga sabab bo'ladi (2-rasm, *b*).



**2-rasm. Titilgan tolalarning sifat tarkibi ko'rsatkichlari**


Shunday qilib, chigal iplar va ip uzuqlarini qirqqib, titib tolali massa olish katta texnologik va iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Tiklangan tolalarning texnologik xossalari to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanishga yaroqli bo'lishi bilan bir qatorda ushbu texnologiyani amalga oshirishda bir qator muammolar mavjudligi ham aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Ikkilamchi xom ashyoni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida chigal iplarni bir bosqichli usulda titish texnologik jarayonlarini tadqiq etish uchun kichik gabaritli uskunani yaratish, uning imkoniyatlarini aniqlash masalasi bosh vazifa qilib qo‘yilgan.

Olib borilgan sinov tajribalari va konstruktiv yechimlarni qo‘llash imkoniyatlarni baholash asosida 3-rasmda tasvirlangan titish uskunasi yig‘ildi.

Dastlabki tadqiqotda ushbu uskunada titilgan tolali massada 51,6 % titilgan tola, 49,4 % to‘la titilmagan iplar mavjudligi aniqlandi. Tolalarni shtapel uzunligi 26,1 mm, kalta tolalar miqdori 11,2 % ga teng bo‘ldi. Bunday xossalarga ega bo‘lgan aralashmani ikkinchi marotaba qayta ishlanganda to‘la titilmagan iplar kamayib, 9,7 % ga teng bo‘ldi. Natijalardan tolali massani uskunadan takroran o‘tkazib, titish darajasini ta’sirini o‘rganish lozimligi aniqlandi.


Titish jadalligini tituvchi barabanning tezligi belgilashini inobatga olib, uni  $524 \text{ min}^{-1}$ ,  $732 \text{ min}^{-1}$  va  $824 \text{ min}^{-1}$  gacha oshirib borildi. Shuningdek, tolalarni qisqarishini kamaytirish maqsadida iplarni qirqmasdan titish imkoniyatlari o‘rganildi. Shu usulda titilganda olingan massada tolalar 53,7 %, to‘la titilmagan ip bo‘lakchalari 46,3 % ni tashkil etdi. Tolaning shtapel uzunligi 28,2 mm ga teng bo‘ldi.



**3-rasm. Titish qurilmasining texnologik chizmasi**

1-ta'minlovchi stolcha; 2-ta'minlovchi tsilindr; 3-tozalovchi pichoq,  
4-tituvchi baraban; 5- ajratuvchi pichoq; 6-to'rtli baraban; 7-havo so'rish tizimi; 8-to'siq (zaslonka);  
9-tushiruvchi planka; 10-kamera

Shunday qilib, chigal iplar va ip qoldiqlarini tavsiya etilayotgan uskunada qayta ishlashda barabanning turli tezliklarida uch martadan, yuqori tezlik bo‘lganda ( $824 \text{ min}^{-1}$ ) ikki martadan titib, tolali massalar olindi. Umumiy variantlar soni 16 taga bordi. Ularni qiyosiy taqqoslash uchun raqamli ma’lumotlar asosida gistogrammalar qurildi (4-5-rasmlar).




**4-rasm. Tolali massadagi tolalarning shtapel uzunligi**

Olingan natijalarni tahlil qilinganda baraban tezligini ortib borishi bilan tolali massadagi titilgan tolalar miqdori ortib, to'la titilmagan iplar miqdori keskin kamayib borishi kuzatiladi. O'timlar sonini oshirishning birinchi bosqichida o'zgarish sezilarli bo'lsa, uchinchi o'timda ikkinchiga nisbatan o'zgarish kam bo'lishi kuzatildi.

Tolali massadagi tolalarning shtapel uzunligini tahlilida birinchi qarashda farqlar uncha katta ko'rinmasada, shu kattaliklarni ahamiyati muhimroq (4-rasm).

Dastlab tezlikni  $732 \text{ min}^{-1}$  ga oshirilganda tolalar uzunligi sezilarli o'zgarmadi. Biroq tezlikni yanada ortishi tola uzunligi kamayishiga olib borishi ko'rinadi. Shu bilan birga qirqilmagan ipni titishda olingan tolalar uzunroq bo'lishi kuzatildi.

Kalta tolalar ulushi barabanning tezligini dastlabki ikki bosqichida ortib borishi asosan o'timlar soniga bog'liqligi, tezlikni oshirilganda ularni ko'payishi kuzatiladi (5-rasm). Shunga ko'ra titilgan tolalar sifatini yaxshilash va tola uzilishlarini kamaytirish uchun uskunaga konstruktiv to'ldirishlar kiritish lozimligi belgilandi.



**5-rasm. Tolali massada kalta tolalar miqdori**

Shunday to'ldirishlar qatorida ta'minlash qurilmasining konstruktiv tuzilishi muhimligi aniqlandi. Bunda tutamni mustahkam siqilishi uchun uning uzunligini aniqlash, shu asosda ta'minlash va titish tezliklarini muvofiqlashtirish lozim.

Siqilgan tutamdan tolalarni ajratib olish uchun uning uchi tituvchi ishchi a'zo sirtidagi tishning ta'sir chizig'idan tashqarida bo'lishi, ya'ni uzunligi ta'minlovchi tsilindr radiusi ( $R_t$ ) va tsilindr bilan baraban tishlari orasidagi oraliq masofa ( $r$ ) yig'indisidan katta bo'lishi lozim

$$L_t > R_t + r \quad (5)$$

Tutamdan ajratiladigan qismining uzunligi  $\delta$  bo'lsa, u holda tutam quyidagi uzunlikka ega bo'lishi kerak

$$L_t = R_t + r + \delta \quad (6)$$

Tituvchi baraban bir qator tishlarining zarbasidan keyin, navbatdagi tishlar qatori zarbasigacha qisqa vaqt sarflanadi

$$\tau = \frac{t \cdot 60}{g_b \cdot 1000}, \text{ sek}, \quad (7)$$

bunda  $t$ -baraban tishlarining perimetr bo'ylab qadami, mm;  
 $g_b$ -tituvchi baraban tezligi, m/min.

Shu vaqt ichida tutam  $\delta$  masofaga surilishi lozim

$$\delta = \frac{g_t \cdot t}{g_b} \quad (8)$$

Ushbu ifodalarni tutam uzunligini aniqlash formulasi (6) ga qo'ysak

$$L_b = R_t + r + \frac{g_t \cdot t}{g_b} \quad (9)$$

ifodani olamiz. Ushbu (9) formula ta'minlash jarayonida tezlikni va titish jadalligini belgilashda foydalaniladi. Bunda tutamdan ajraladigan qismning uzunligi ipga nisbatan tadbiiq etilganda uni har bir buram qadamiga teng deb qabul qilish mumkin. U holda  $\delta = \Delta \ell$  bo'lishi ko'rinadi. Shunga ko'ra titish mashinasining parametrlarini ipning chiziqli zichligi, undagi tola uzunligi hamda ipga berilgan buramlarga muvofiq tanlash lozim bo'ladi.

Ta'minlash usullari stolchali yoki bir juft tsilindrli bo'lishi mumkin. Stolchali usulda titiladigan tutamni tituvchi baraban harakatiga qarshi, egri chiziq bo'yicha yo'naltirilganda uni bo'ylamasiga zichlanishi sodir bo'lib, titish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir juft silindr bilan ta'minlanganda esa, tutam ustki tsilindrga beriladigan yukni ta'sirida siqilgan holda bo'ladi. Har ikki usulda tutam yetarli darajada siqilsada, titish jarayonida iplar sirpanishi mumkin.

Bunday holda tutamni mustahkam turishi va titish kuchiga qarshilik ko'rsata olishini ta'minlash lozim. Shuning uchun yangi titish uskunasi ta'minlash tsilindrini arra tishli qoplama bilan qoplash yo'li bilan titiladigan iplar tutamini mustahkam tutib qolish, uni titishga tayyorlash jarayonini samarali borishini qo'shib olib borish mumkinligi aniqlandi. Bunda ta'minlash zonasida arra tishli qoplama ega tsilindrlar juftini o'rnatilganda ta'minlovchi juft tishlari tutib qolish bilan bir qatorda tezliklar nisbati kattaligi tufayli tutamdagi iplar to'g'rilanadi.

Dastlabki sinovda uskunada bir juft ta'minlovchi valik o'rnatib, chigal iplarni titilganda tolalarni uzunligida o'zgarish kam bo'lgan bo'lsada, titilgan tolali massada to'la titilmagan iplar ulushi kamaydi. Titish jarayonining samaradorligini baholash uchun yangi me'zon va usul sifatida yangi ko'rsatkich, titish samaradorligi kiritildi


$$T_s = k_\ell \cdot k_{ip} = \frac{\ell_2}{\ell_1} \cdot \frac{\theta_2}{\theta_1}, \quad (10)$$

bunda  $k_\ell$  - tola uzunligini o'zgarish koeffitsienti;  $k_{ip}$  - titilgan tolali massadagi ip ulushini ko'rsatuvchi koeffitsient;  $\ell_1$  va  $\ell_2$  - mos ravishda iplardagi va tiklangan tolali massadagi tolalarning uzunligi, mm;  $\theta_2$  va  $\theta_1$  - iplardan tozalangan tolalar va namunaning massasi, gr.

Hisoblash mohiyatidan kelib chiqqan holda titish samaradorligi ko'rsatkichi doimo  $T_s < 1,0$  bo'ladi va u qancha katta bo'lsa jarayon shuncha samarali hisoblanadi. Ushbu usulga asoslanib aniqlanganda olti barabanli titish mashinasida 0,8812, yangi uskunada qirqilgan va qirqilmagan chigal iplarni titish samaradorliklari mos ravishda 0,8205 va 0,9022 ga teng bo'ldi.

Chigal iplarni dag'alligi, uzunligi, tekislanishi kam bo'lganligi uchun ularni to'g'rilash ham katta kuch talab qiladi. Shuning uchun ta'minlash qurilmasida sirti arra tishli lenta bilan qoplangan uch juft valiklar o'rnatildi. Ta'minlash va titish jarayonida yuzaga keluvchi kuchlarni ta'siri, qoplaman tolali material bilan to'lish koeffitsientini tahliliga asoslanib valiklarga o'raladigan qoplamaning turi tanlandi.

Ta'minlash jarayonining vazifasiga ko'ra har bir ta'minlovchi juftlarning qoplamalarini tishlarini hamda harakat yo'nalishlari asoslandi. Shunga ko'ra uch juft valiklar o'rnatilgan ta'minlovchi qurilmaning 6-rasmda ko'rsatilgan konstruksiyasi yaratildi.



6-rasm. Ko'p zonali ta'minlash qurilmasi

